

**TOSHKENT TO‘QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/2025.27.12.T.21.01
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT TO‘QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI

SHAMANOV SHAVKAT XOLMUROTOVICH

**BIRLAMCHI VA IKKILAMCHI POLIETILENTEREFTALATDAN
OLINGAN TOLANI BO‘YASH TEXNOLOGIYASINI ISHLAB CHIQISH**

**05.06.02 – To‘qimachilik materiallari texnologiyasi va
xomashyoga dastlabki ishlov berish**

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора
философии (PhD) по техническим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of
philosophy (PhD) on technical sciences**

Shamanov Shavkat Xolmurotovich

Birlamchi va ikkilamchi polietilentereftalatdan olingan tolani bo‘yash
texnologiyasini ishlab chiqish..... 3

Шаманов Шавкат Холмуротович

Разработка технологии крашения волокна, полученного из первичного и
вторичного полиэтилентерефталата..... 23

Shamanov Shavkat Kholmurotovich

Development of technology for dyeing primary and secondary polyethylene
terephthalate fiber..... 47

E‘lon qilingan ishlar ro‘yhati

Список опубликованных работ

List of published works..... 50

TOSHKENT TO‘QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/2025.27.12.T.21.01
RAQAMLI ILMIY KENGASH

TOSHKENT TO‘QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI

SHAMANOV SHAVKAT XOLMUROTOVICH

BIRLAMCHI VA IKKILAMCHI POLIETILENTEREFTALATDAN
OLINGAN TOLANI BO‘YASH TEXNOLOGIYASINI ISHLAB CHIQISH

05.06.02 – To‘qimachilik materiallari texnologiyasi va
xomashyoga dastlabki ishlov berish

TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Toshkent – 2026

Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.2.PhD/T4709 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat institutida bajarilgan.

Dissertsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti huzuridagi Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.titli.uz) va «Ziyonet» Axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Xasanova Saodat Xaitovna
texnika fanlari nomzodi, dotsent

Rasmiy opponentlar:

Xanxadjayeva Nilufar Raximovna
texnika fanlari doktori, professor

Ismoilov Ravshan Isroilovich
kimyo fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Toshkent kimyo-texnologiya instituti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/2025.27.12.T.21.01 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil 27-avgust soat 10⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil:100100, Toshkent sh., Yakkasaroy tumani Shohjaxon ko'chasi, 5-uy. Tel.: (+99871) 253-06-06, (+99871) 253-08-08, faks: (+99871) 253-36-17; e-mail: titlp_info@edu.uz, Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti ma'muriy binosi, 2-qavat, 222-xona).

Dissertatsiya ishi bilan Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№ 306 raqam bilan ro'yhatga olingan). Manzil: 100100, Toshkent sh., Yakkasaroy tumani, Shohjaxon ko'chasi, 5-uy. Tel.: (+99871) 253-06-06, (+99871) 253-08-08.

Dissertatsiya avtoreferati 2026 yil 20-iyul kuni tarqatildi.
(2026 yil 20-iyul № 306 raqamli reestr bayonnomasi).



X.H.Kamilova
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash raisi, t.f.d., professor

A.Z.Mamatov
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash ilmiy kotibi, t.f.d., professor

Sh.Sh.Xakimov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi, t.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda yangi va yashil ishlab chiqarish jarayonlarini joriy etilishi sababli poliefir tolasi bozori 2024-yilda 129,8 milliard dollarga baholangan bo'lsa, 2034-yilga kelib, 4,5% yillik o'sish sur'ati bilan 207,4 milliard dollarga yetishi kutilmoqda, 2024 yilda jami poliefir mahsulotlarining 38% i kiyim-kechak sifatida savdoga chiqarilgan. Yevropa Komissiyasining Aylanma Iqtisodiyot Harakatlar Rejasida to'qimachilik sanoatida poliefir tolalarini qayta ishlatish va barqaror dizayn asosida eskirgan materiallar miqdorini kamaytirishga alohida e'tibor qaratilgan, shuningdek, BMTning Barqaror rivojlanish kun tartibining 12-maqsadi sanoat tarmoqlarini chiqindilarni minimallashtirish va qayta ishlash amaliyotlarini qo'llashga undaydi. Bu borada poliefir tolasini to'qimachilik sanoatida aylanma harakatini ta'minlash va uning ikkilamchi tolalaridan samarali foydalanish texnologiyalarini ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi¹.

Dunyo bo'yicha to'qimachilik sanoatining xom ashyo bazasini kengaytirishda ikkilamchi PET tolalarini qayta ishlash, kimyoviy pardozi berish va ulardan samarali foydalanishni zamonaviy yangi texnika va texnologiyalarini takomillashtirish bo'yicha tizimli ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Ushbu yo'nalishda xususan, birlamchi poliefir tolalar bilan bir qatorda ikkilamchi polietilentereftalatdan olingan tolani bo'yash va ular asosida yangi to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqish bo'yicha tadqiqotlar ustuvor hisoblanmoqda. Bu borada, poliefir tolalaridan samarali foydalanish, ip va uning asosidagi to'qimachilik materiallarini kimyoviy pardoqlashda ekologik xavfsiz, resurstejamkor texnologiyalarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Respublikamizda polietilentereftalat chiqindilarini qayta ishlash va ulardan poliefir shtapel tolalari ishlab chiqarishni rivojlantirish bo'yicha ekologik hamda iqtisodiy jihatdan keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. 2023-2030-yillarda O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha "O'zbekiston 2030" strategiyasida, jumladan, "iqtisodiyotning energiya samaradorligini oshirish, sanoat tarmoqlarida yo'qotishlarni kamaytirish va resurslarni ishlatish samaradorligini oshirish"² bo'yicha muhim vazifalar belgilab berilgan. Ushbu yo'nalishda xususan, Respublikada yig'ilgan PET idishlarni qayta ishlash orqali ikkilamchi poliefir tola olish birlamchi poliefir iste'molini kamaytirishga, eksportga mo'ljallangan va import hajmini qisqartirishga qaratilgan to'qimachilik materiallarini yangi assortimentini taklif etish va ularni kimyoviy pardoqlashning resurstejamkor texnologiyalarini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 31-maydagi PF-81-son "Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasini transformatsiya qilish va vakolatli davlat organi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" gi, 2023-yil 10-yanvardagi PF-2-son "Paxta-to'qimachilik klasterlari faoliyatini qo'llab-quvvatlash, to'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini tubdan isloh qilish hamda

¹ Рынок полиэфирного волокна - по сорту, по продукту, по применению - мировой прогноз на 2025–2034 гг. Дата публикации: March 2025. <https://www.gminsights.com/ru/industry-analysis/polyester-fiber-market>

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son "O'zbekiston-2030" strategiyasi to'g'risida Farmoni.

sohaning eksport salohiyatini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi, 2025-yil 16-yanvardagi PF-6-son "To'qimachilik va tikuv trikotaj sanoatida qayta ishlash zanjirini rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora tadbirlar to'g'risida"gi va 2022-yil 29-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmonlari, shuningdek 2022-yil 24-yanvardagi PQ-99-son "Respublikada ishlab chiqarishni rivojlantirish va sanoat kooperatsiyasini kengaytirishning samarali tizimini yaratish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori, hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Ushbu tadqiqot O'zbekiston Respublikasini ilm va texnologiyalar rivojlantirishning II. "Energetika, energiya va resurs – tejamkorlik" ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Jahonda global ekologik inqirozni yuzaga keltirayotgan polietilentereftalat plastiklarni kimyoviy qayta ishlash orqali birlamchi polietilentereftalat sintez qilish bo'yicha xorijiy olimlar Nandi S., Mahish S., Nath D., Ayzenshteyn E.M., Shayers D. va O'zbekistonlik olimlar Alimuxamedov M.G., Odilov R.I., Jo'rayev A.B. va boshqalar, hamda dunyoda plastiklarni qo'llash siklini oshirishda keng qo'llanilayotgan mexanik qayta ishlash yo'li bilan olingan ikkilamchi polietilentereftalatni Jiang Zhaohui, Guo Zengge, Zhang Zhanqi, Qi Yuanzhang, Moral A., Irusta R., Martin J.M., Martinez L. va boshqalar, uni birlamchi polietilentereftalat, tabiiy va kimyoviy tolalar aralashmasidan olingan kalavalarni ishlab chiqarish bo'yicha Telli A., Babaarslan O., Sarioglu E., Nohut S., Yayla O., O'zdil N., Skulanova N.S., Zubkova N.S., Podalnaya T.V., Golaydo S.A. va boshqa olimlar tomonidan samarali ishlar olib borilgan.

Sun'iy va sintetik tolalarni olish, ularni modifikatsiyalash, boshqa tolalar bilan aralashmasidan to'qimachilik tolalarini ishlab chiqish va kimyoviy pardoqlash bo'yicha katta ilmiy maktab shakllangan bo'lib, unda o'z vaqtida B.E. Geller, K.E. Ergashev, E.Z. Zokirov, J.A. Zgibneva, A.L. Xamrayev, M.Z. Abdukarimovlar faoliyat yuritishgan. Hozirgi kunda esa uni rivojlanishiga D.B. Xudoyberdiyeva, I.A. Nabiyeva va A.A. Miratayevlar o'z xissalarini qo'shib kelmoqda. Shu bilan birga ikkilamchi polietilentereftalat tolasini massada quruq usulda bo'yash, birlamchi va ikkilamchi polietilentereftalat asosida yangi to'qimachilik materiallarini, jumladan ip va mato assortimentlarini ishlab chiqish va ularni bo'yash muammolarini hal etish yetarli darajada chuqur o'rganilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim yoki muassasasining ilmiy-tadqiqot muassasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiyada keltirilgan tadqiqotlar PZ-20170928224 "To'qimachilik sanoati uchun poliefir tolalarini olish va ular asosida yangi tuzilishdagi to'qimachilik aralash iplari va gazlamalar ishlab chiqarish yangi texnologiyalarini yaratish" (2018-2020) mavzusidagi amaliy loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi birlamchi va ikkilamchi polietilentereftalatdan olingan tolani bo'yash texnologiyasini ishlab chiqish.

Tadqiqotning vazifalari: polietilentereftalat: olinishi, xossalarini boshqarish imkoniyatlari, ishlab chiqarishdagi ekologik muammolar, to'qimachilik sanoatida qayta ishlashning innovasion texnologiyalari bo'yicha chop etilgan ilmiy ishlarning analitik tahlili;

ikkilamchi polietilentereftalatdan tola shakllantirish va bo'yash texnologiyasini ishlab chiqish;

birlamchi va ikkilamchi polietilentereftalat granulari aralashmasidan tola shakllantirish, bo'yash eritmasining ratsional tarkibi va jarayonning texnologik ko'rsatkichlarini aniqlash;

birlamchi va ikkilamchi polietilentereftalat tolalari asosidagi to'qimachilik materiallari (ip, mato) ning texnologik xossalarini tadqiq qilish, ipda tolalar, matoda iplar nisbatini asoslash, bo'yash texnologiyasini ishlab chiqish;

ikkilamchi polietilentereftalat tolalarini bo'yash va antistatik xossa berish texnologiyasini takomillashtirish, ishlab chiqilgan va takomillashtirilgan texnologiyalarning texnik iqtisodiy samaradorligini asoslash.

Tadqiqotning ob'ekti - birlamchi, ikkilamchi polietilentereftalat granulari va ular asosida olingan to'qimachilik materiallari (tola, ip, mato).

Tadqiqotning predmeti - birlamchi va ikkilamchi polietilentereftalat granulari aralashmasidan tola shakllantirish, ular asosidagi to'qimachilik materiallarini bo'yash, antistatik xossa berish jarayonlar kinetikasi, materiallarning fizik-mexanik, fizik-kimyoviy va koloristik xossalari tadqiqi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotlar zamonaviy sinovdan o'tkazish vositalarini qo'llagan holda amalga oshirilgan (IQ-spektroskopiya, spektrokolorometriya, sorbsion, rentgenografik tahlil, differensial termik analiz, fizik-mexanik va matematik uslublar).

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

polietilentereftalat tolalarining sorbsion xossalarini tahlili bo'yicha ularni yuqori darajada shakllangan ustmolekulyar qurilmasi intensiv va mustahkam ranglar hosil bo'lishini ta'minlashi aniqlangan;

bo'yalgan polietilentereftalat tolalar kristallanish darajasi va kristallit o'lchamini oshishi tola kristallik yacheykasiga bo'yovchi modda zarrachalarini o'rnatish bilan bog'liqligi IQ-spektroskopiya, rentgenostruktura va differensial termik tahlillar asosida aniqlangan;

birlamchi va ikkilamchi polietilentereftalat tolalari asosidagi to'qimachilik materiallari (tola, ip, mato) ning koloristik xossalarini iplar nisbatiga bog'liqligi hamda antistatik pardozi berishda triamonning tola funktsional guruhlari bilan bog'lanishi solishtirma yuzaviy elektrlanish qarshilikning kamaytirishi aniqlangan;

birlamchi va ikkilamchi polietilentereftalat tolalari asosidagi to'qimachilik materiallari (tola, ip, mato)ning fizik-mexanik xossalari, rang sifat ko'rsatkichlarini tahlili asosida kompozitsion kalava va trikotaj glad to'qimasini bo'yashning resurstejamkor texnologiyasi ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

ikkilamchi polietilentereftalat asosida olingan tolani dispers bo'yovchi modda bilan bo'yash tarkibi va texnologiyasi taklif etildi;

ikkilamchi va birlamchi polietilentereftalat asosida olingan 70:30 kompozitsion tolani eritmada dispers bo'yovchi modda bilan tolani shishalanish haroratiga yaqin harorat va an'anaviy davomiylikni 2 marta kamaytirilgan sharoitda bo'yash texnologiyasi ishlab chiqilgan. BPET:IPET 70:30 nisbatli kompozitsion tola aktiv markazlar (–COOC- guruh) ga bo'yovchi moddaning (-OH, -NH₂, -NHR) qutbli guruhlarini molekulalararo vodorod va gidrofob bog'lanishlar orqali bog'lanishi tola kristallanish darajasini 5,94 baravar oshishi orqali tasdiqlangan;

polietilentereftalat granulalari asosida olingan tolalarni kimyoviy pardoqlash – bo'yash va ularga antistatik xossa berish jarayonlarini birlashtirilgan ikki eritmali texnologiyasi ishlab chiqilgan;

birlamchi va ikkilamchi polietilentereftalat tolalari asosidagi to'qimachilik materiallari (kalava, mato) ni dispers bo'yovchi moddalar bilan uzlukli usulda bo'yash texnologiyasi ishlab chiqilgan.

PET tolalarni bo'yash tarkibi va tartibini takomillashtirish natijasida bo'yash materiallari sarfini kamaytirish, texnologik jarayon hamda ish davomiyligini qisqartirish hisobiga 100 kg tayyor tolani bo'yashda olinadigan yillik iqtisodiy samaradorlik 343176 so'mni yoki 1 tonna tayyor mahsulotni bo'yashdan esa 3431760 so'mni tashkil etadi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. PET asosida olingan tolalarini xossalari zamonaviy fizik-kimyoviy va optik uslublar asosida tahlil qilinganligi, shuningdek nazariy va tajribaviy tadqiqotlarning mosligi, aprobat siya va qo'llash natijalarining ijobiyligi, natijalarni solishtirish, baholash mezonlariga ko'ra adekvatligi, o'tkazilgan tadqiqotlarning ijobiy natijalari va ularning ko'rib chiqilgan fan sohasidagi ma'lumotlar bilan qiyosiy tahlili bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati fizik-kimyoviy tahlillar bo'yicha ikkilamchi polietilentereftalat asosida kompozitsion tola shakllantirishga asos qilinganligi, tolalarining morfologiyasi va ust qurilmasi bilan ularning koloristik xossalari orasida bog'liqlik o'rnatilganligi bilan izohlanadi

Dissertasiyaning amaliy ahamiyati birlamchi va ikkilamchi polietilentereftalatdan shakllantirilgan to'qimachilik materiallarini bo'yash texnologiyasini ishlab chiqishda, chiqindilardan samarali foydalanish orqali ekologik muammolarni hal etilganligi, respublikaning import hajmini kamaytirishga va to'qimachilik sanoatini yangi assortimentdagi tola bilan ta'minlash imkoni yaratilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Birlamchi va ikkilamchi polietilentereftalatdan olingan tolani bo'yash va unga antistatik pardoqlash berish texnologiyalari bo'yicha olingan natijalar asosida:

birlamchi va ikkilamchi polietilentereftalat granulalaridan olingan tolalarini bo'yash texnologiyasi "TASHTIB-TEX" MCHJ korxonasining laboratoriya sharoitida sinovdan o'tkazildi. ("O'zto'qimachilik sanoat" uyushmasining 8-oktabr 2024-yil №03/25-2674 sonli ma'lumotnomasi). Natijada yangi shakllantirilgan kompozitsion tolalarni massada masterbatch bilan va eritmada dispers bo'yovchi modda ishtirokida tolani shishalanish haroratiga yaqin haroratda va an'anaviy davomiylikni ikki marta

kamaytirilgan sharoitda bo'yash jarayonida yuqori rang intensivligiga ega bo'lgan tolalar olishga erishildi;

birlamchi va ikkilamchi polietilentereftalat granulalaridan olingan tolalarini bo'yash va ularga antistatik pardozi berish texnologiyasi "Kompaniya UNITEX" MCHJ korxonasining kimyoviy laboratoriyasida sinovdan o'tkazildi. ("O'zto'qimachilik sanoati" uyushmasining 8-oktabr 2024-yil №03/25-2674 sonli ma'lumotnomasi). Natijada yangi shakllantirilgan kompozitsion tolaning yuzaviy solishtirma elektr qarshiligini $2,8 \cdot 10^{10}$ Om dan $2,6 \cdot 10^6$ Om ga pasaytirishga erishildi.

Tadqiqot natijalarining aprotatsiyasi. Izlanish natijalari 12 ta xalqaro va 8 ta Respublika ilmiy-texnik anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 29 ta ilmiy ish chop etilgan va 1 ta foydali model patenti olingan, shulardan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 9 ta maqola, jumladan 6 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, 3 ta bob, xulosa, 119 nomdagi foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi kompyuterda terilgan 105 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida o'tkazilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, ob'ekti va predmeti tavsiflangan, tadqiqot ishining respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ishonchlilik asoslangan, ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ilmiy ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **"Polietilentereftalat: olinishi, xossalari boshqarish, ishlab chiqarishdagi muammolar va ularning yechimlari"** deb nomlangan birinchi bobida polietilentereftalat granulalaridan tola olish imkoniyatlari, polietilentereftalat tola olishning o'ziga xos xususiyatlari, poliefir tolalarini turli usullarda bo'yash va sintetik tolalarga antistatik xossa berish texnologiyalariga oid xorijiy va mahalliy adabiy manbaalarning tanqidiy tahlili keltirilgan.

Dissertatsiyaning **"Birlamchi va ikkilamchi polietilentereftalat asosida olingan tolalarni kimyoviy pardozi berish tadqiqot ob'ektlari va usullari"** nomli ikkinchi bobida tadqiqot ob'ektining tasnifi, tajriba usullari, laboratoriya ekstruderida PET tolalar shakllantirish, massada va eritmada bo'yash usullari, bo'yash va antistatik pardozi berishning birlashtirilgan usuli, tola olish, bo'yash va antistatik pardozi berish jarayonlarining tartib va tarkiblari, ikki vannali usulda antistatik pardozi berish, tajriba natijalarini tahlil qilish usullari keltirilgan.

Dissertatsiyaning **"Birlamchi va ikkilamchi polietilentereftalat asosidagi to'qimachilik materiallari (tola, ip, mato) ning bo'yash texnologiyasini ishlab chiqish"** deb nomlangan uchinchi bobida PET granulalari asosida olingan tolalarni bo'yash va antistatik pardozi berish, BPET:IPET asosidagi kompozitsion tola, ip va trikotaj matolarni bo'yash texnologiyasini ishlab chiqish, jarayonni o'rganishdagi

to'liq omilli eksperimentni rejalashtirish asosida matematik modellash va polietilentereftalat tolalarini bo'yashdan olinadigan yillik iqtisodiy samaradorlik hisob-kitoblari keltirilgan.

Izlanishlarning **birinchi bosqichi** tadqiqot ob'ektlari: birlamchi (BPET), ikkilamchi (IPET) granulari va plastik – qadoq idishi (BIPET)ning fizik-kimyoviy ko'rsatkichlarini aniqlashga bag'ishlandi. GOST bo'yicha tola olishga yaroqli polietilentereftalatning suyulish harorati 255-260°C, molekulyar massasi 20000-30000, namligi 0,03% va zolligi 0,06% atrofida bo'lishi ko'rsatilgan. Tadqiq qilinayotgan PET namunalarining molekulyar massasi fenol va tetraxloreten erituvchilarni 1/3 nisbatda olingan aralashmasida tayyorlangan eritmasining solishtirma va xarakteristik qovushqoqliklari asosida hisoblandi (1-jadval).


1-jadval

PET granularining fizik-kimyoviy ko'rsatkichlari

PET granulari	Ko'rsatkichlar			
	Solishtirma qovushqoqlik	Molekulyar massa	Namligi, %	Zolligi, %
BPET	0,84	22968	0,03	0,03
IPET	0,72	19545	0,04	0,28
BIPET	0,51	12963	0,03	0,05
GOST	0,85	20000-30000	0,03	0,06

Tajriba natijalari birlamchi va ikkilamchi PET tolasi solishtirma qovushqoqligi va molekulyar massasi ularni tola shakllantirishga yaroqli ekanligini, BIPET esa bu asosiy parametrlar bo'yicha talabga javob bermasligini ko'rsatdi. Barcha PET turlarida namlik miqdori IPET dan tashqari talab doirasida, zollik qiymati belgilangan me'yordan oshmaganligi aniqlandi.

Izlanishlarning navbatdagi bosqichi tadqiqot ob'ektlaridan laboratoriya olish qurilmasida tolalar shakllantirishga bag'ishlandi. Olingan tolalarning kirishish darajasi 1-rasmda keltirilgan.




1-rasm. PET tolalarini kirishish darajasi

Rasmdan eng yuqori kirishish darajasi BIPET tolasida kuzatildi. Bu bir necha marta yuqori haroratda qayta ishlangan BIPET strukturasida boshqa PET namunalariga nisbatan makromolekulalararo bo'shliqlar, kanallar va g'ovaklar rivojlanganligini ko'rsatadi.

Tadqiqotlarning **ikkinchi bosqichida** BPET, IPET va ular aralashmalaridan olingan tolalarni "Massa" va "Eritma" usulida bo'yash jarayoni o'rganildi.




Dispers bo'yovchi modda, dispergator va parafin asosidagi aralashmani PET suyultmasiga qo'shish yordamida bo'yalgan tolalar shakllantirildi. Tolalarda hosil bo'lgan rangning intensivligi 2-rasmda keltirilgan.



2-rasm. PET tolalari rang intensivlik ko'rsatkichi

Rang intensivligi "massa" usulida bo'yalgan ikkilamchi IPET va BIPET tolalarida BPET ga nisbatan yuqori bo'lishi qayta ishlash vaqtida ustmolekulyar qurilmada sodir bo'lgan o'zgarishlar bilan bog'liq. Bo'yalgan PET tolalar rang intensivligini SAM eritmasining 2 g/l eritmasida 30 daqiqa qaynatilgan hamda yuvilgandan so'ng pasaymasligi mustahkam ranglar hosil bo'lganini tasdiqlaydi.

BPET, IPET va BIPET tolalarni "eritma" da bo'yash jarayoni tarkibida dispers bo'yovchi modda, intensifikator, sirt aktiv modda, pH muhit regulyatori bo'lgan tarkibda amalga oshirildi (3-rasm).



3-rasm. BPET, IPET va BIPET tolalarni "eritma" da bo'yash jarayoni kinetikasi.

1–BPET tola; 2– IPET tola; 3– BIPET tola; 4– lavsan tola

Tartiblangan strukturali, kristallanish darajasi yuqori bo'lgan BPET tolaga nisbatan amorf qismi rivojlangan, g'ovakdor strukturaga ega BIPET tolada rang intensivligini yuqori bo'lishi, kuchli gidrotermik ta'sirlar (3 soat davomida) natijasida oligomerlarni tola ichki sohalaridan tashqariga migratsiyasi amorf sohaning bo'shagan hajmiga bo'yovchi modda molekulalarini oson diffuziyalanishiga va tolada kapsulyatsiyalangan bo'yovchi modda miqdorini oshishiga sabab bo'ladi (3,a-rasm).

PET tolalar rangini sovunli suvga mustahkamligi natijalari 2-jadvalda keltirilgan.


Bo'yalgan PET tolalari rangining sovunli suvga mustahkamligi

Tola turi	Bo'yovchi modda konsentratsiyasi, %			
	1	2	3	4
BPET	5/5/5	5/5/5	5/4/5	5/4/5
IPET	5/5/5	5/5/5	5/4/5	5/4/5
BIPET	5/5/5	5/4/5	5/5/5	5/5/5
Lavsan tolasi	5/5/5	5/5/5	5/5/5	5/5/5

Tolalarda hosil qilingan yuqori rang mustahkamligini bo'yovchi modda molekularini tolaga kapsulyatsiyasi, ya'ni yuqori harorat ta'sirida hosil bo'ladigan fluktatsion hajmlarga diffuziyasi va sorblanishi natijasi deb qarash mumkin.

Intensifikator konsentratsiyasi 1 g/l olinganda BPET tolada rang intensivligi $K/S=36$, BIPIET tolada $K/S=33$, lavsanda $K/S=26$, IPET tolada esa yuqori rang intensivligi tashuvchini 3 g/l konsentratsiyasida ($K/S=35$) erishilganini ko'rish mumkin (3,b-rasm). Bu intensifikator miqdori oshirilganda va qaynash harorati ta'sirida tola strukturasida erkin hajmlarni ko'p va tez hosil bo'lishi ortidan tolaga diffuziyalanadigan bo'yovchi modda ulushini ortishini ko'rsatadi. Biroq, tashuvchi konsentratsiyasi 5 g/l olinganda barcha tolalarda rang intensivligini keskin kamayishi qaynash haroratida bo'yovchi moddani sorbsiyasi bilan bir vaqtda desorbsiya jarayoni kuchayganidan darak beradi. Bo'yash jarayoni davomiyligini tola rang intensivligiga ta'siri o'rganilganda, bo'yashning dastlabki 60 daqiqasida barcha tadqiqot namunalarida rang intensivligini oshishi kuzatildi. IPET va lavsan tolalariga taaluqli egri chiziqlar o'xshashligi ularni zich va yuqori kristalli strukturasiga bilan bog'liq bo'lib, bo'yovchi moddani kirishi uchun amorf sohalar imkoniyatini chegaralaydi, bundan tashqari IPET tolada qayta ishlashdan so'ng termooksidlanish destruktiviyasi mahsulotlari, qoldiq stabilizatorlar va past molekulyar fraksiyalar saqlashi bo'shliqlarni qisman to'lib qolishga va zanjirlarni harakatchanligini pasayishga olib keladi. BPET tola ancha yuqori rang intensivligi uni bir jinsli ustmolekulyar qurilmasi, amorf va kristall sohalarini optimal nisbati, nuqson va iflosliklarni kamligi bilan bog'liq bo'lib, bo'yovchi moddani diffuziyalanishini ta'minlaydi. BIPIET tolada maksimal K/S qiymati rivojlangan amorf faza, yuqori g'ovakdorlik va strukturadagi mikronuqsonlarni ko'pligi bilan tushuntiriladi.

Bo'yash jarayonini 3 soat davom etishi tolalar rang intensivligiga deyarli ta'sir ko'rsatmasligi aniqlandi, bunda agressiv sharoit (harorat, vaqt) PET tolalarni dag'allanishiga, BIPIET tola esa sinishiga olib kelgani sababli ratsional bo'yash davomiyligi sifatida 1 soat tanlandi. Tadqiqotlar natijasi sifatida BPET va IPET tolalarni bo'yash uchun tarkib va texnologiya taklif etildi:

**4-rasm. BPET va IPET tolalarni bo'yash jarayonining texnologik rejimi**

Tadqiqotning uchinchi bosqichida BPET va IPET granularining turli nisbatdagi aralashmalaridan shakllantirilgan tolalarni massada va eritmada bo'yash

jarayoni o'rganildi. Bo'yalgan tolalarning koloristik ko'rsatkichlari 3 va 4-jadvalda keltirilgan. Massada bo'yash PET suyultmasiga masterbatch superkonsentratlari kiritish, eritmada bo'yash esa dispers bo'yovchi moddaning suvli eritmasida amalga oshirildi. Fizikaviy modifikatsiya yo'li bilan olingan PET tolalar rang xarakteristikalari tahlil qilindi (3-jadval).

3-jadval

PET tolalari turini tola rang ko'rsatkichlariga ta'siri

Tola nomi	Rang yorqinligi, L*	Rang ravshanlik, B, kd/m ²	Rang koordinatasi		Rang tusi, h ⁰
			a*	b*	
BPET 100%	38,80	7198,82	48,23	21,50	24,08
IPET 100%	35,41	5948,93	48,36	19,72	21,28
BPET:IPET 30:70	35,55	5996,74	48,79	20,48	23,03
BPET:IPET 50:50	34,78	5730	48,42	23,96	23,10
BPET:IPET 70:30	34,26	5527,9	48,21	24,05	23,51

Bo'yalgan tolalar rang ko'rsatkichlarini tahlili kompozitsion toladagi BPET miqdorini oshishi rang yorqinligini pasayishi, a* o'qi bo'ylab rangni "qizil-yashil" yo'nalishida sezilarli o'zgarishini, b* o'q bo'ylab esa rangni "sariq-ko'k" yo'nalishida sariqqa tomon surilganini ko'rsatdi. 70:30 kompozitsion PET tola rang tusi BPET tola rang tusidan 0,57° farq qilishi kuzatildi.

Oldingi bosqichda tavsiya etilgan tarkib va texnologiya bo'yicha eritma usulida bo'yalgan BPET, IPET va 70:30, 50:50, 30:70 kompozitsion tolalar rang ko'rsatkichlari 4-jadvalda keltirilgan.

4-jadval

PET tolalari turini tola rang ko'rsatkichlariga ta'siri

Tola nomi	Rang yorqinligi, L*	Rang ravshanlik, B, kd/m ²	Rang koordinatasi		Rang tusi, h ⁰
			a*	b*	
BPET 100%	27,35	3565,26	46,70	27,21	30,22
IPET 100%	24,31	2868,6	42,03	21,90	26,87
BPET:IPET 30:70	26,71	3409,07	44,14	23,38	28,11
BPET:IPET 50:50	26,68	3401,89	43,45	23,21	27,92
BPET:IPET 70:30	25,05	3026,82	42,33	21,87	27,27

Dispers bo'yovchi modda bilan eritmada bo'yalgan PET tolalari rang ko'rsatkichlarini tahlili birlamchi PET miqdorini oshishi masterbatch bilan massada bo'yalgani singari rang yorqinligini pasayishiga, rangni a* o'q bo'ylab "qizil-yashil" yo'nalishida (~4,3) o'zgarishini, b* o'q bo'ylab esa "sariq-ko'k" yo'nalishida (~5,3) o'zgarishini ko'rsatdi. 70:30 nisbatli kompozitsion PET tolaning rang tusi BPET tolasiga rang tusidan ~2,9° ga farq qilishi aniqlandi.

Kompozitsion tolada rang ravshanligini har ikki usul bo'yicha bo'yashda ham BPET tolaga nisbatan pastligi, BPETni maksimal toza, tiniq va yuqori yaltiroqlik xususiyatiga egaligi, IPETda esa turli qo'shimchalar hamda nuqsonlar tufayli

yorug'likni yoyilishi va yutilishini sodir bo'lishi bilan tushuntirish mumkin. Yuqori rang intensivligi BPET va 70:30 kompozitsion tolada kuzatildi.

Eritma va massa usullarida bo'yalgan BPET va IPET tolalarini fizik-mexanik ko'rsatkichlari 6-jadvalda keltirilgan.

5-jadval



Turli usullarda bo'yalgan PET tolalarining fizik-mexanik ko'rsatkichlari


Ko'rsatkichlar	Bo'yash usullari			
	Massa		Eritma	
	BPET	IPET	BPET	IPET
Uzilishga mustahkamlik, cN/dtex	19,57	19,12	24,59	13,08
Uzilishdagi nisbiy cho'zilish, %	2,24	3,11	4,28	6,08
Egiluvchanlik moduli, cN/dtex	661,67	634,69	592,31	286,29

Turli usullarda bo'yalgan BPET va IPET tolalarni fizik-mexanik ko'rsatkichlarini tahlili dispers bo'yovchi modda bilan eritmada bo'yalgan IPET tolani BPET tolaga nisbatan uzilishdagi mustahkamligi 46,8%, egiluvchanlik moduli 51,7% ga pastligi, uzilishdagi cho'zilishi 30,2% ga yuqoriligi, massada masterbatch bilan bo'yalgan IPET tolani esa BPET tolaga nisbatan uzilishdagi mustahkamligi 2,3%, egiluvchanlik moduli 4,1% ga pastligi va uzilishdagi cho'zilishini esa 28% ga yuqoriligini ko'rsatdi. Eritma usulida bo'yalgan IPET tola mexanik mustahkamligini massa usulidagiga nisbatan pastligini uning ustmolekulyar qurilmasida amorf sohani ustunlik qilishi ($S_{sol.}=16 \text{ m}^2/\text{g}$), hamda qo'shimcha ravishda bo'yash jarayonida intensivlikni tola strukturasi bo'shashgan holatga o'tkazishi, sorbsion hajmni oshirishi natijasida molekulalararo vodorod va gidrofob bog'lanishlarni uzilishi bilan izohlash mumkin.

Gidrofob tolalarni bo'yash uchun maxsus sharoitlar (yuqori harorat) talab qilinsa-da, tadqiqotlarda 70-75°C haroratda 30 daqiqa ichida BPET va BPET:IPET 70:30 kompozitsion tolalarini bo'yalishi kuzatildi (5-rasm).

Grafiklarda BPET:IPET 70:30 kompozitsion tolani past haroratda BPET tolaga nisbatan bo'yashning dastlabki vaqtidayoq bo'yovchi modda molekulalarini diffuziyalanishi va kapsulyatsiyalanishi bo'yicha ustunlik qilish aniqlandi. Buni ushbu tolalarning ust molekular qurilmasida kristall sohaga nisbatan amorf sohalarni kuchli rivojlangani bilan tushuntirish mumkin. BPET va BPET:IPET tolalarining rang intensivligi mos ravishda 4,67 va 5,7 ni tashkil etadi.





5-rasm. Bo'yash harorati va bo'yash davomiyligining PET tolalar rang intensivligiga ta'siri:

a) 70-75°C; b) 80-85°C; d) 90-95°C

Bo'yash jarayoni 80-85°C haroratda (45 daqiqa) olib borilganda BPET va BPET:IPET tolalarida rang intensivliklarini (K/S) bir xil qiymatga erishish holati kuzatildi. Bu har ikki tolada hosil bo'ladigan erkin hajmlarga bir xilda bo'yovchi modda molekulalarini kapsulyatsiyasi borganini bildiradi. Bo'yash davomiyligini keyingi uzaytirilishi tolalarda bir xilda rang intensivligi saqlanishini ko'rsatdi.

Bo'yash jarayonini 90-95°C haroratda olib borilganda rang intensivligi bo'yicha ustunlik BPET tolasida kuzatildi. Jarayonning 30 va 45 daqiqalarida tolada kapsulyatsiya bo'lgan bo'yovchi modda zarrachalari miqdorini oshishi BPET tolada amorf soha ulushini oshayotganidan dalolat beradi. Bo'yalgan BPET:IPET 70:30 kompozitsion tola rangini sovunli ishlovga mustahkamligi tekshirildi (7-jadval).


6-jadval

Bo'yash harorati va davomiyligining tola rang mustahkamligiga ta'siri

Bo'yash davomiyligi, daqiqa	Rang mustahkamligi, ball		
	70-75°C	80-85°C	90-95°C
30	4/4/4	4/5/4	4/5/4
45	4/4/5	4/4/3	4/4/4
60	5/4/5	5/5/4	5/4/5

Jadvaldan bo'yash harorati va davomiyligini uzaytirilishi bilan bo'yovchi moddaning sovunli suvga mustahkamligini oshgani kuzatildi.

Olingan natijalar asosida BPET:IPET 70:30 kompozitsion tolni bo'yash eritmasi tarkibi va texnologik rejimi taklif etildi (6-rasm):



6-rasm. BPET:IPET 70:30 nisbatli kompozitsion tolalari bo'yash jarayonining texnologik rejimi


BPET va 70:30 kompozitsion tolalarda bo'yashning past harorat va qisqa davomiyligida kuzatilgan yuqori rang intensivligi va rang mustahkamligi ko'rsatkichlari ularning sorbsion xossalari (solishtirma yuza, to'yinish hajmi, g'ovaklar radiusi) bilan bevosita bog'liq. BPET, IPET va 70:30 kompozitsion tolalar sorbsion xossalari tahlili IPET tola solishtirma yuzasi bo'yicha BPET toladan 41,7%, 70:30 kompozitsion toladan 66,4% ga, to'yinish hajmi bo'yicha BPET toladan 56%, 70:30 kompozitsion toladan 45,7% ga kattaligi, g'ovaklarini radiusi bo'yicha esa

BPET ga nisbatan 74,4%, 70:30 kompozitsion tolaga nisbatan 81,8% ga kichikligini ko'rsatdi (8-jadval).

7-jadval

PET granularlar va ular asosida olingan tolalar sorbsion xossalari

Adsorbentlar	Monoqavat sig'imi, α_m , mol/kg	Solishtirma yuzasi, S, m ² /g	To'yinish hajmi $V_s \cdot 10^3$, m ³ /kg	G'ovak radiusi, Å/nm
BPET tola	0.152	9.89	0.016236	32.8/3.28
IPET tola	0.261	16.94	0.007146	8.4/0.84
BPET:IPET 70:30	0.088	5.70	0.01314	46.1/4.61




7-rasm. BPET:IPET 70:30 kompozitsion tolaning IQ-spektri

A – BPET:IPET 70:30 kompozitsion tola; B – Dispers bo'yovchi modda bilan bo'yalgan BPET:IPET 70:30 kompozitsion tola.

Bo'yalgan BPET:IPET 70:30 kompozitsion tola IQ-spektrida qayd etilgan yangi tebranish polosalari: 1338 sm⁻¹ da CH₂ hilpiragichli, 971 sm⁻¹ da C-O efir guruhining valent, hamda bo'yalmagan tola IQ-spektrining 1087 sm⁻¹ da kuzatilgan intensiv C-OH valent tebranishni xarakterlovchi yutilish polosasini 10 sm⁻¹ ga (1097 sm⁻¹) siljishi bo'yovchi moddani tolaga kapsulyatsiyasi, shuningdek tola va bo'yovchi modda o'rtasida vodorod va gidrofob bog'lanishlar sodir bo'lishini tasdiqlaydi.

BPET:IPET 70:30 kompozitsion tola difraktogrammasida $2\theta=29,22^\circ$ burchakda past intensivlikdagi qaytarish cho'qqisi, $2\theta=32^\circ$ va $2\theta=38^\circ$ da esa ko'p jihatdan BPET tolaga xos cho'qqilar qayd etildi. Ushbi tolni $2\theta=29,22^\circ$ burchakda aniqlangan kristallit o'lchami 482 Å tashkil etdi (8-rasm).

Bo'yalgan BPET:IPET 70:30 kompozitsion tola difraktogrammasida $2\theta=16,5^\circ$ va $2\theta=24,5^\circ$ graduslarda bo'yalmagan tolada qayd etilgan, amorf sohani xarakterlovchi "gallo" intensivligini pasayishi, shuningdek $2\theta=32^\circ$ va $2\theta=39^\circ$ graduslarda kuzatilgan difraktsiya cho'qqilari intensivligini 2,3 va 2,1 martaga oshishi kuzatildi.



Bo'yalmagan tola

Bo'yalgan tola

8-rasm. 70:30 kompozitsion tola difraktogrammasi

Dastlabki va bo'yalgan PET tolalar kristallanish darajasi 9-jadvalda keltirilgan.

8-jadval

PET tolalari kristallanish darajasi

Tola turi	Kristallanish darajasi, %		
	BPET	IPET	BPET:IPET 70:30
Bo'yalmagan	4,7	4,27	3,94
Bo'yalgan	26,7	27,7	21,4


Yuqorida keltirilgan jadvaldan, barcha PET tolalarida kristallanish darajasi dastlabkiga nisbatan 5,7, 6,5 va 5,4 marta oshganini ko'rish mumkin. BPET:IPET 70:30 kompozitsion tola kristallanish darajasini BPET va IPET tolalarga nisbatan 14,8% va 22,7% ga pastligi bo'yashdan so'ng uning sorbsion xossalari (solishtirma yuzasi, monoqavat sig'imi) ni oshgani bilan izohlash mumkin. Tolada qolgan bo'yovchi modda miqdori bo'yicha ustunlik IPET tolasida kuzatildi: bo'yovchi modda kontsentratsiyasi eritmada 1% olinganda IPET tolada qoldiq bo'yovchi modda BPET ga nisbatan 3,5%, kompozitsion tolaga nisbatan 1,14% ga yuqori bo'lgan bo'lsa, bo'yovchi modda kontsentratsiyasi eritmada 2% bo'lganda, 1% va 0,6%, 3% bo'lganda esa 1,6% va 1,96% ga kamligi kuzatildi. IPET tolasining yuqori sorbsion xossasini uning solishtirma yuzasini boshqa PET tolalariga nisbatan yuqoriligi, jumladan BPET tolaga nisbatan 1,7 barobar, BPET:IPET 70:30 kompozitsion tolaga nisbatan 2,97 barobar kattaligi bilan izohlash mumkin (10-jadval).

9-jadval

Bo'yovchi modda kontsentratsiyasini tolada qolgan bo'yovchi modda miqdoriga ta'siri

Bo'yovchi modda kontsentratsiyasi, %	Tolaga qolgan bo'yovchi modda miqdori, g/kg		
	BPET	BPET:IPET 70:30	IPET
1	9,42	9,64	9,75
2	19,14	19,22	19,34
3	28,58	28,68	29,14
4	37,67	38,4	38,92

Bo'yalgan va bo'yalmagan BPET:IPET 70:30 kompozitsion tolaning termik xossalari tahlil qilindi (9-rasm).




9-rasm. BPET:IPET 70:30 kompozitsion tolalar TGA va DTA egri chiziqlari


Dispers bo'yovchi modda bilan bo'yalgan 70:30 kompozitsion tolani bo'yalmagan tolaga nisbatan (2-3°C) termik barqarorligi uni kristall panjarasiga bo'yovchi modda molekulalarini o'rnamishishi natijasida kristallanish darajasini oshgani bilan tasdiqlanadi.

Izlanishlarda PET tolalariga antistatik pardozi berish jarayoni bir va ikki vannali usulda amalga oshirildi. Ikki vannali usulda triamon konsentratsiyasi 5% olinganda, BPET tola solishtirma yuzaviy elektrlanish qarshiligini $2,8 \cdot 10^{10}$ Om dan $2,6 \cdot 10^6$ Om ga kamaytirishga erishildi. Ikki vannali usulda BPET tolani bo'yash va antistatik pardozi berish tarkibi va texnologiyasi taklif etildi (10-rasm).

1-vanna texnologik ketma-ketligi:



2-vanna texnologik ketma-ketligi:



10-rasm. Ikki vannali usulda BPET tolani bo'yash va antistatik pardozi berish texnologik ketma-ketligi

Dissertatsiyaning 3.7 - bo'limida BPET va IPET 70:30 shtapel tolalar aralashmasidan yigirilgan kalava va to'qilgan glad trikotaj matolarini bo'yash jarayoni o'rganildi. 70:30 kompozitsion kalava fizik-mexanik ko'rsatkichlari 10-jadvalda keltirilgan. Kalavalar fizik-mexanik ko'rsatkichlarini tahlili, laboratoriya sharoitida yigirilgan kompozitsion kalavani korxonada ishlab chiqarilgan BPET kalavadan chiziqli zichligini 41% ga, uzilish kuchini 9,6% ga kattaligi, uzilishdagi cho'zilishini 10% ga pastligini ko'rsatdi.


10-jadval

Bo'yalmagan PET kalavalar fizik-mexanik ko'rsatkichlari

Kalavaning xarakteristik ko'rsatkichlari	O'lchov birligi	GOST 23432-89	BPET	BPET:IPET 70:30
Chiziqli zichligi	tex	15-60	42	59,4
Uzilish kuchi	cN/tex	10-30	12,3	13,49
Uzilishdagi cho'zilish	%	10-35	12,9	11,67
Buramlar soni	buram/metr	200-600	300	362

PET kalavalarini bo'yash jarayoni turli harorat (70-95°C) va davomiyliklar (30-60 minut) da o'rganildi. BPET:IPET 70:30 kompozitsion kalava rang intensivligini BPET kalavaga nisbatan 14,3% ga yuqoriligini tola ustmolekulyar qurilmasida amorf

sohani yuqori harorat va bo'shashtiruvchi ta'sirida yanada kengayishi, konsentratsiya gradienti tufayli unga ko'proq bo'yovchi modda sorblanishi bilan izohlash mumkin (11-rasm).



11-rasm. Bo'yash eritmasi harorati va vaqtini kalava rang intensivligiga ta'siri

